JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 22 - dekabr 354-3-47-Q/22 Do‘stlik tuman hokimligi

Do‘stlik tumani markazi “Do‘stlik” ko‘chasiga yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Do‘stlik tumani markazi “Do‘stlik” ko‘chasiga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga (B.Muxtorov) tuman markazi “Do‘stlik” ko‘chasiga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (Z.Anarboev)ga mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Do‘stlik hayoti” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Tinchlikov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **SH.Darvishev**

Do‘stlik tuman hokimining
2022 yil 22 dekabrdagi
354-3-47-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi ichki yo‘llarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari bo‘yicha

MA’LUMOT

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni	Yo‘l belgisi nomi
1	Do‘stlik	PK 00+PK 065 o‘ng tomon	1	4.1.1 Harakatlanish to‘g‘riga
2	Do‘stlik	PK 00+PK 065 chap tomon	1	5.11.1 Qayrilib olish joyi
3	Do‘stlik	PK 00+PK 450 o‘ng tomon	1	5.11.1 Qayrilib olish joyi
4	Do‘stlik	PK 00+PK 450 chap tomon	1	4.1.1 Harakatlanish to‘g‘riga
5	Do‘stlik	PK 00+PK 670 o‘ng tomon	1	5.11.1 Qayrilib olish joyi
6	Do‘stlik	PK 00+PK 670 chap tomon	1	4.1.1 Harakatlanish to‘g‘riga
JAMI:			6	